
NURONIYLAR E'ZOZDA



NURONIYLAR E'ZOZDA

Qariyalar, nuroniy otaxon va onaxonlar, ko'pni ko'rgan bobolaru butun umrini farzand parvarishi va mehnat qilishga bag'ishlagan momolarimiz borki, hayot go'zal. Zotan, bu ulug' insonlar hayotimizning gultoji, umrimiz mazmuni sanaladi. Bunday insonlarga e'tibor, mehr-muhabbat ko'rsatish, ularning duolarini olish biz uchun ham qarz, ham farzdir.

Tumanimizning Zangat mahallasida joylashgan "Niso" dam olish maskanida tashkil etilgan tadbirga 50 nafar mehnat faxriyalari, nuroniy otaxon va onaxonlar, frontorti xizmatchilar taklif etilib ularga hurmat-ehтиrom ko'rsatildi. Tadbirda tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev ishtirok etdi.



Tuman hokimi tadbir ishtirokchilariga o'z minnatdorchiligini bildirib, bugungi farovon hayot va tinchoyishta zamonda yashash baxti barchamizga ayni shu insonlarning say-harakati, ko'rsatgan fidoiyliklari va sidqidildan qilgan mehnatlari ila bardavom ekanligini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, Konstitutsiya kuniga bag'ishlab bir guruh mehnat faxriylari, front ortida halozmehnat qilgan nuroniylarga viloyat hokimining esdalik sovg'alari va oziq-ovqat mahsulotlari topshirildi. Yangi mahallasida yashovchi nuroniy otaxon, yuz bilan yuzlashgan Qorijon Zavharovga tuman "Mahalla" xayriya jamoat fondi hisobidan bayram sovg'alari qatorida eshitish moslamasi ham taqdim etildi.

Samimiy minnatdorlik va shukronalik ila nuroniy otaxon va onaxonlar sovg'alarni qabul qilib olishdi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-12-09 16:45:55